



ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Qodirova Maxliyo G'anijonovna

Buxoro davlat universiteti 14-6BTU-19 guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida badiiy asar tahlilida yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish. Ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishning muhim jihatlari ochib berilgan. Didaktik vositalardan foydalanishda o'quvchilarning psixologik, yosh xususiyatlarini inobatga olish zarurligi misollar asosida isbotlangan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, innovasion texnologiya, ta'lim-tarbiya, didaktik vosita, ta'lim samaradorligi.

O'quvchilarda nutqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ona tili fanining o'rnini va ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'limda ona tili fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni ko'zda tutadi

Bugungi kunda boshlang'ich sinf darsliklari o'quvchining ijodkorligiga, uning kreativlik qobiliyatini rivojlantirish uchun shuningdek, o'quvchida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga doir ko'pgina mashqlarni uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari boshlang'ich sinflarda kitoblar bilan birgalikda mashq daftarlarini ham berilishi ularning mavzuni mustahkamlashi uchun yanada samarali usullardan biri desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bugungi kunda darslikda berilgan matnlar o'quvchining tinglab tushunish qobiliyati, fonetik jihatdan unli va undosh harflar talaffuzi, ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish qobiliyati doir ko'pgina matnlarni uchratishimiz mumkin.

O'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish nazarda tutiladi.

O'quvchining nutqini o'stirish uchun albatta badiiy asarlarning o'rnini beqiyos hisoblanadi. Boshlang'ich sinfda hikoya, kichkina matn o'qishga qiziqqan bola, albatta yuqori sinfda kattaroq asar o'qishni boshlaydi va bu ko'nikmaga aylanib boradi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida ham bir qancha hikoyalarni uchratishimiz mumkin. Biz o'zimizga savol beraylik, matn o'qish, hikoya o'qish bolaga nima beradi? Biz uni o'quvchiga qanday usullar bilan yetkazsak, samarali natijaga erishamiz.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovasion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xato xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi



Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)

asosiy figuraga aylanadi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir: Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. Ta'lim to'g'risidagi Qonunda rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi. Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi. To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi o'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'qituvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari interfaol uslublar, innovation texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. «Dumaloq stol» metodi: Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varag'i davra bo'ylab aylantiriladi. Har bir talaba o'zining javob variantini yozib qo'ygach, varaqni boshqa talabaga uzatadi. Keyin muhokama bo'ladi: noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblarning soniga qarab talabaning bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma shaklda emas, balki og'zaki shaklda ham qo'llash mumkin. «Ruchka stol o'rtasida» metodi. Butun guruhga topshiriq beriladi (masalan, ot so'z turkumiga qaysi so'zlar kiradi). Har bir o'quvchi bitta javob variantini bir varaq qog'ozga yozib, uni qo'shnisiga beradi, o'z ruchkasini esa stolning o'rtasiga surib qo'yadi. Topshiriqqa misol: O'qituvchining guruhga beradigan topshirig'i shaxs rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni hayotiy misollar bilan sharhlab berish. Ajratilgan 10-15 daqiqa vaqt ichida guruh mumkin qadar ko'proq sonda javob variantlari berishi kerak. Bir varaq qog'ozga yozilgan topshiriq bir o'quvchidan ikkinchisiga uzatiladi. O'quvchi javobni yozib, qog'ozni keyingi talabaga uzatadi, ruchkasini esa, o'ziga ro'baro' qilib, stolga qo'yib qo'yadi. Javobni bilmaydigan o'quvchi qog'ozni keyingi o'quvchiga uzatadi-yu, lekin ruchkasini qo'lida olib qoladi. Bu metodikaning yana bir sharti: bitta variantni ikki qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytariqlar bo'lishiga bu o'rinda yo'l qo'yilmaydi. Topshiriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog'oz o'qituvchida. U o'sha variantlarni sanab o'tadi. Variantlar sanab o'tilar ekan, ularning biri muhokama qilib boriladi: «Ruchka stol o'rtasida» metodi bir qancha afzalliklarga ega. Jumladan, o'qituvchi mashg'ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko'rib turadi: – mashg'ulotga tayyorlanmagan o'quvchi og'zaki muhokama paytida ko'rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar olishi mumkin; – bu guruhda olib boriladigan ish bo'lib, o'quvchilar intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o'z variant ustida juda uzoq o'ylab o'tiradigan o'quvchi butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflaydi. Shuningdek, o'quvchi mashg'ulotga tayyor bo'lmasa, bunda ham u guruhga pand beradi, chunki guruh uning uchun ishlashi kerak bo'ladi; o'quvchilar o'z javoblarini ikki marta: yozma ish paytida va og'zaki muhokama vaqtida tahlil qilib borishadi. Shunday qilib, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan mazkur interfaol usullar o'quvchi-talabalarning mustaqilligi, ishchanligi, uyushqoqligi, xushmuomalaligi, ijodiy fazilatlarini kamol toptirishga yordam beradi. Interfaol usullarni yana boshqacha ta'riflaydigan bo'lsak interfaol ta'lim jarayonida dars o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafoiatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy



mezonlari norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Interfaollik, bu - o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi (sub'yektsub'yekt) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Demak, interfaol ta'lim texnologiyalari va uning muhim tarkibiy elementi bo'lgan interfaol metodlar ta'lim jarayonini tashkil etish ko'rsatkichlarining o'zgarishini ta'minlaydi. Zero, zamonaviy ta'lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog'liqlikda ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva F. TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
2. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50.
3. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
4. Nurullayevna A. F. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIY OMMABOP MAQOLALARNI O'RGATISH //БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 406-409.
5. Kurbanova S. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ–ЦЕЛОСТНАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА КУРБАНОВА ШОИРА НАРЗУЛЛАЕВНА, АБДУЛЛАЕВА ФЕРУЗА, ОЧИЛОВА ГО //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
6. Курбанова Ш. Н., Абдуллаева Ф., Очиллова Г. О. Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса //новые педагогические исследования: сборник статей IV. – 2021. – С. 20.
7. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.
8. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIY-OMMABOP MAQOLALARNI O'RGATISHNING METODIK IMKONIYATLARI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.034> Abdullayeva Feruza Nurilloevna Vuxoro davlat universiteti o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 243-246.

**Innovative Society: Problems, Analysis
and Development Prospects (Spain)**

9. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development*, 6(6), 1433-1436.
10. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(6), 1-5.
11. Olloqova O'g'iljon, M. (2022). Development of Students' Pragmatic Competence through Phonetic Knowledge. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development*, 6(6), 1541-1545.
12. Mamanazarova, O. O. (2022). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA NIKOYANI TAHLIL QILISH ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH. *Scientific Impulse*, 1(5), 694-699.
13. Mamanazarovna, O. O. (2022). O'QUV JARAYONIGA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 67-70.
14. Olloqova, O. (2022). УЧАЩИЕСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА ОРГАНИЗАЦИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 8(8).
15. Jobir o'g'li, Y. M., & Roziyabonu, S. (2022). 1-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 132-137.
16. YARASHOV, M. (2023). The Place of Digital Technologies in the Education System. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).
17. YARASHOV, M. (2023). Methodology of Application of Digital Technologies in Primary Education. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).
18. YARASHOV, M. (2023). The Process of Creative Organization of Primary School Mathematics Education through Digital Technologies. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).
19. YARASHOV, M. (2022). Characteristics of International Integration of Sciences in Primary Schools. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 23(23).
20. Yunus, Y. S., & Bahrilloyevna, B. F. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ULUSH VA KASR TUSHUNCHASI. *Scientific Impulse*, 1(5), 767-773.
21. Yunus, Y. S. (2022). MODERN APPROACH TO TEACHING ELEMENTS OF ALGEBRA IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS. *Scientific Impulse*, 1(5), 774-780.
22. Yusufzoda, S. (2023). ALIFBE DAVRIDA YOZUV TEXNIKASINI O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 27(27).
23. Yunus, Y. S., & Hikmatovna, N. M. (2022). WAYS OF EFFECTIVE USE OF EDUCATIONAL METHODS AND TOOLS. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 148-152